

Chet til ta'limida yozma nutqni shakllantirish masalalari

*Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya. *Ma'lumki, amaliy mashg'ulotlarda chet til nutqiga o'rgatish tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv orqali amalga oshiriladi. Mazkur maqolada chet til mashg'ulotlarida yozma nutqni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha o'rganilib chiqilgan.*

Xorijiy va mahalliy olimlarning mavzu doirasida tadqiqot ishlari tahlilga tortildi. Talabalarga chet til ta'limida yozma nutqni o'rgatishning samarali metodlari taklif etildi. Ma'lumki yozma nutq o'qish va yozuv orqali ifodalanadi. Chet til mashg'ulotlarida o'qish nutq faoliyati turiga oid matnlarni tahlili orqali ta'lim oluvchilar tomonidan muallifning fikri idrok qilinish bilan birga, matnning mazmuniga munosabatlarini bildiradilar, unga nisbatan ijobiy va tanqidiy fikr bayon qiladilar. Yozuv nutq faoliyati turi orqali talabalar biron-bir mavzu doirasida matn yaratadilar, bu esa ularni firklashga va munosabat bildirishga undaydi. Shuningdek, muntazam mashq orqali yozuv ko'nikmasi rivojlantirilishi natijasida ta'lim oluvchilar ijtimoiy hayotini faol ishtirokchisiga aylanadi. Amaliy mashg'ulotlarda yozuvning assotsiagramma, klaster, v-savollar(W-Fragen) va boshqa metodlaridan foydalanish taklif etilgan. Chet til ta'limida yozma nutqning samarali metodlari orqali talabalar lingvistik, lingvokulturologik bilimlarga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: *chet til, nemis tili, metod, ta'lim, shakllantirish, nutq faoliyati turlari, yozuv.*

Вопросы формирования письменной речи в обучение иностранному языку

*Атаев Шукур-Али Аюб-Алиевич,
кандидат филологических наук, доцент
Ташкентский государственный педагогический университет*

Аннотация. *Как известно, обучение иноязычной речи на практических занятиях осуществляется через аудирование, говорение, чтение и письмо. В данной статье всесторонне изучены особенности формирования письменной речи на занятиях по иностранному языку. Проанализированы исследовательские работы зарубежных и отечественных ученых в рамках данной темы. Предложены эффективные методы обучения студентов письменной речи при обучении иностранному языку. Как известно, письменная речь выражается чтением и письмом. В процессе анализа текстов, относящихся к виду речевой деятельности, учащиеся при восприятии мысли автора выражают свое отношение к содержанию текста, высказывают положительное и критическое мнение по отношению к нему. Посредством письменно-речевой деятельности учащиеся создают текст в рамках определенной темы, которая побуждает их кружиться и реагировать. Также в результате развития навыков письма посредством регулярных упражнений учащиеся становятся активными участниками общественной жизни. На практических занятиях предлагается использовать ассоциативную диаграмму, кластер, W-вопросы(W-Fragen) и другие методы письма. Благодаря эффективным методам письменной речи при обучении иностранному языку учащиеся получают лингвистические, лингвокультурологические знания.*

Ключевые слова: *иностраннный язык, немецкий язык, метод, образование, формирования, виды речевой деятельности, письмо.*

Issues of writing formation in foreign language teaching

Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich,

*candidate of philological sciences, associate professor
Tashkent state pedagogical university*

Annotation. *As is known, the teaching of foreign language speech in practical classes is carried out through listening, speaking, reading and writing. This article comprehensively studies the peculiarities of writing formation in foreign language class. The research works of foreign and domestic scientists within the framework of this topic are analysed. Effective methods of teaching students written speech when teaching a foreign language are proposed. As it is known, written speech is expressed by reading and writing. In the process of analysing texts related to the type of speech activity, students, while perceiving the author's thought, express their attitude to the content of the text, express positive and critical opinion towards it. Through the writing-speech activity, students create a text within a particular topic that encourages them to spin and respond. Also as a result of developing writing skills through regular exercises, students become active participants in social life. Practical lessons suggest the use of the associagram, cluster, W-questions (W-Fragen) and other writing methods. Thanks to effective writing methods in teaching a foreign language, students acquire linguistic, linguocultural knowledge.*

Keywords: *foreign language, German language, method, education, formation, development, types of speech activity, writing.*

Kirish.

Ma'lumki, chet til ta'limida yozma nutqni shakllantirish deganda o'qish va yozuv nutq faoliyat turi nazarda tutiladi. Aslida o'qish deganda, yozma ma'lumotni tushunish va uni talqin etishni o'z ichiga olgan kognitiv jarayoni tushunilsa, yozuv esa tilning turli vositalari orqali fikr bayon etishni o'z ichiga oladi.

Chet til o'qitish metodikasida yozma nutq faoliyati turlari asosan (o'qish orqali) biron-bir ma'lumotga ega bo'lishda va uni (yozuv orqali) qayd etuvchi ta'lim vositasi hisoblanadi. So'nggi paytlarda esa ikkala nutq faoliyat turi ko'proq maqsad maqomiga ega bo'lib bormoqda.

Mazkur maqolada biz chet til mashg'ulotlarida o'qish va yozuvning maqsad maqomiga to'xtalib, bu borada mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali usullarini taklif etamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Chet til o'qitish metodikasida yozma nutq olimlarning diqqat markazida bo'lib, asosan E.G.Azimov, N.D.Galskova, J.Jalolov A.A.Leontyev, A.R.Luriya, M.V.Lyaxovitskiy, R.K.Minyar-Beloruhev, A.A.Mirolyubov, G.V.Rogova, F.M.Rabinovich, T.E.Saxarova, A.N.Shukin, I.A.Zimnaya va boshqalarning ilmiy asarlarida atroflicha o'rganilib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada yozma nutgning umumnazariy muammolari va uning o'ziga xos lingvodidaktik xususiyatlarini aniqlashda hamda ularni tahlili jarayonida induktiv va deduktiv metodlardan foydalanildi, ya'ni induktiv metod yordamida asosan muammoni umumiy qonuniyalari aniqlash va ularni to'plash asoslangan bo'lsa, deduktiv metod orqali dastlabki qoidalar asosida ma'lumotlar tahlil qilinib, yangi ma'lumotlarni aniqlash jarayonini o'z ichiga oladi. Shuningdek, nemis tili mashg'ulotlarida yozma nutqning maxsus, ya'ni oqish nutq faoliyat turning "tanqidiy o'qish" va yozuvning "Kreativ yozuv", "Assotsiagramma", "W-Fragen" metodlarini qo'llash imkoniyatlari taklif etildi.

Tahlil va natijalar.

Dastlab biz amaliy mashg'ulotlarda oqishdan foydalanishning samarali metodlarini atroflicha o'rganib, bu borada mavjud qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishning usullariga to'xtalib o'tamiz.

Aslida lingvodidaktikada o'qishning 50dan ortiq ta'rifi mavjud bo'lib, quyida ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz: O'qish deganda, harfiy belgilarda ifodalangan nutqiy axborotni idrok etish va uning mazmunini payqash jarayoni tushuniladi [Berman, 1977]. Yoki bo'lmasa o'qish bu – axborot yozma (grafik) kodlar orqali ifodalanganda u o'qib tushuniladi [Klichnikova, 1983]. O'qish

– grafik koddagi axborotni undan butunlay farq qiladigan kodga o‘tkazish jarayonidir [Berman, 1977].


Chet til o‘qitish metodikasiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlili natijasida o‘qishning grafik belgi, harf va so‘zlarni idrok etish xususiyati muhim deb hisoblaymiz. Ma’lumki, talabalar chet tildagi matnning tahlil qlar ekanlar, bu jarayonda yangi so‘z va iboralarni payqashga harakat qiladilar. Matnning ma’nosini tushunish bilan birga uning tuzilishini o‘rganish ahamiyatli bo‘lib, bu o‘z o‘rnida matn tuzilishiga oid dastlabki tasavvurga ega bo‘lish hamda leksik vositalarning so‘zma-so‘z yoki muqobil variantlarini taklif qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘qish jarayonida ta’lim oluvchilar tomonidan muallifning fikri idrok qilinib, matn mazmuniga o‘z munosabatlarini bildiradilar, natijada matnga nisbatan ijobiy va tanqidiy fikr bayon qilinadi. Matn ma’nosini fahmlash talabalarda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Chet til mashg‘ulotlarida o‘qishga o‘rganishning dastlabki bosqichida ta’lim oluvchilar notanish so‘zni tarjimasini qidirish yoki tovushni tahlil qilish usullaridan keng foydalanadilar. Shuningdek, matnlarning tahlili jarayonida gapning tuzilishi katta ahamiyatga ega bo‘lib, jumlar tuzish va ularning o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Amaliy mashg‘ulotda talabalar qisqa matnlarni o‘qishni xush ko‘radilar. Lekin 5-6 betdan iborat matnlarni idrok qilish jarayoni ta’lim oluvchilarda chalg‘ish hissini uyg‘otishi tabiiy. Buning natijasida talabalarda ongli ravishda yuk ortadi va o‘qish samaradorligining pasayishiga va matni tushunishning yomonlashishiga olib keladi. Bunday holatda qisqa matnlarni ovoz chiqarib o‘qishning samarali metodi, ya’ni “tez aytish”dan foydalanish mumkin, misol uchun nemis tilida quyidagilarni kuzatishimiz mumkin:

- Als Anna abends aß, aß Anna abends Ananas;
- Wenn der Benz bremst, brennt das Benzbremslicht;
- Früh fressen freche Frösche Früchte. Freche Frösche fressen früh Früchte;
- Kluge kleine Kinder kaufen keine kleinen Kleiderknöpfe;
- Zehn zahme Ziegen zogen zehn Zentner Zucker zum Zoo;
- Russische Russen rutschen russische Rutschen russisch runter.

O‘zbek tilidagi tez aytish nemis tilida “Zungenbrecher”, ya’ni so‘zma-so‘z “til sindiruvchi”, “til yoruvchi” tarzida tarjima qilinadi, talaba ularni takroriy o‘qish orqali ularning talaffuzida xatolik kuzatiladi. Bu esa o‘z o‘rnida talabalarni faollashuviga olib keladi.

Albatta o‘qish bilan bir qatorda yozuv nutq faoliyat turiga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish asosan quyidagilarda namoyon bo‘ladi, birinchidan, yozuv talabalarni fikrlashga undaydi, ya’ni ular ma’lum bir mavzuga munosabat bildiradilar. Ikkinchidan, muntazam mashq qilish orqali yozuv ko‘nikmasi rivojlantiriladi va nihoyat yozma muloqot ta’lim oluvchilarni ijtimoiy hayotini faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ular asosan yozuvning quyidagi metodlarida namoyon bo‘ladi: assotsiagramma, klaster, v-savollar(W-Fragen). Quyida ularga to‘xtalib o‘tamiz. Assotsiagramma metodi orqali ta’lim oluvchilar amaliy mashg‘ulotlar jarayonida mazkur metod yordamida biron-bir mavzuga oid so‘z va tushunchalarni qayd qilishga harakat qiladilar, ya’ni diqqat markazida “Oila” tushunchasi yozilib, uni ifodalovchi so‘zlar aks ettiriladi:



Bu metod orqali talabalar oilaga oid soʻz va iboralar(opa-uka, gʻamxorlik qilish, bagʻrikeng va b.)ni qayd etadilar.

Yozuv koʻnikmalarini shakllantirish “V-savollar(W-Fragen)” metodi yordamida kuzatishimiz mumkin. Bu metodda nemis tilidagi “W” harfi bilan boshlanadigan soʻroq soʻzlar(kim, nima, qanday, nima uchun, qanday qilib va b.) yordamida maʼlum bir predmet yoki hodisaga oid savollarni tuzadilar:



Bu metod talabalar uchun gap tuzishning samarali usuli boʻlib xizmat qiladi, desak xato boʻlmaydi. Albatta bu kabi metodlar talabalarni firklashga undaydi, yaʼni yozuv koʻnikmasiga faqat muntazam yozuv orgali erishish mumkin ekanligini yaqqol isboti boʻladi. Chet til oʻqitish metodikasida yozuv koʻnikmasini shakllanishiga qaratilgan koʻpgina metodlar mavjud boʻlib, bu roʻyhatni kengaytirish mumkin. Nemis tili mashgʻulotlarida yozuv koʻnikmalarini shakllantirishning samarali metodlari haqida Sh.Atayev oʻzining “Methodik des kreativen Schreibens im interkulturellen Lernen”(Madaniyatlararo taʼlimda kreativ yozuv metodikasi) nomli maqolasida batafsil tahlil qilib chiqqan [Atayev, 2017]. Muallif tomonidan koʻpchilik olimlar tomonidan taklif qilingan kreativ yozuvning oʻziga xos xususiyatlari va tasnifini berash bilan birga, bu nutq faoliyatiga oid “Eine etwas andere Vorstellung”, “Ich in Farben, als Getränk”, “Eigenschaften-Gedicht”, “Haiku”, “Assoziatives Schreiben zu Musik”, “Autonomisches Schreiben”, “Dinge, die ich getan haben muss/ohne die ich nicht leben kann” metodlari orqali yoritib berilgan. Shuningdek, kreativ yozuv odatda voqelik kontekstida kreativ gʻoyalarni amalga oshirish uchun asosiy omil boʻlib takidlab oʻtilgan.

Xulosa va takliflar.

Chet til mashgʻulotlarida taʼlim oluvchilarga yozma nutqni shakllantirish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: oʻqish va yozuv nutq faoliyati turlari – bu grafik va fonologik maʼlumotlarni qayd etish va ularni idrok etish hamda ularni talqin qilish, shuningdek sintaktik tuzilmalarni qayta ishlash va maʼno chiqarishni oʻz ichiga olgan koʻp qirrali lingvistik jarayon. Ushbu bosqichlarning har biri insonning bilim qobiliyatlari, xotirasi, tajribasi va tilni bilishi bilan chambarchas bogʻliq.

Shuningdek, oʻqish nutq faoliyat turi chet til oʻqitish metodikasida katta ahamiyatga ega boʻlib, xorijiy tildagi matnni oʻqish jarayonida taʼlim oluvchilar lingvistik, lingvokulturologik bilimlarini takomillashtirish bilan birga, bu nutq faoliyati turining umumtaʼlimiy va rivojlantiruvchi taʼsirini oshiradi, yaʼni insonni komillik sari yetaklovchi omil boʻlib xizmat qiladi, desak xato boʻlmaydi. Shuningdek, umumiy oʻrta taʼlim yuqori va yakunlovchi bosqichlarida chet til taʼlimida yozma nutq faoliyatiga oʻrgatish mexanizmlarini ishlab chiqish va oʻquv jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Азимов, Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий. – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
2. Гальскова, Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: АРКТИ, 2003. – 192 с.
3. Гез, Н.И., Ляховицкий М.В., Миролюбов А.А. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Высшая школа, 1982. – 373 с.
4. Клычникова З.И. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке. Пособие для учителя. // – М. Просвещение, 1983. – 207 с.
5. Очерки методики обучения чтению ва иностранных языках/ под ред. Берман и В.А.Бухбиндера. – Киев: Высшая школа, 1977. – 334 с.
6. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
7. Atayev Sh. Methodik des kreativen Schreibens im interkulturellen Lernen. The Way of Science International scientific journal, № 3 (37), 2017. – S. 95-97.